

**QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLATLAR
SIFATIDA KAM AHAMIYATLI QILMISHLAR**

Dauletbaeva Aynur Baxramovna,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

E-mail:dawletbaevaaynur0@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tushunchasi va o'ziga xos tomonlari o'rganilgan, va bu boradagi huquqshunos olimlarning fikrlari tahlil etilgan. Shuningdek, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar bilan bog'liq kam ahamiyatli qilmishlar haqida kengroq to'xtalib o'tilgan. Jinoyat qonuni normalarini yanada takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, kam ahamiyatli qilmishlar, ijtimoiy xavflilik, juda oz miqdor.

**МЕЛКИЕ ПРАВОНАРУШЕНИЯ КАК ИСКЛЮЧЕНИЕ ИЗ
ПРЕСТУПНОСТИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ**

Даулетбаева Айнур Бахрамовна

Студент Каракалпакского государственного университета имени

Бердаха

E-mail:dawletbaevaaynur0@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие обстоятельств, исключающих преступность деяния, его специфические аспекты, а также анализируются мнения ученых-юристов по этому поводу. Также подробно рассматриваются мелкие деяния, связанные с обстоятельствами, исключающими преступность деяния. Даны соответствующие предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию норм уголовного законодательства.

Ключевые слова: преступление, обстоятельства, исключающие преступность деяния, мелкие деяния, общественная опасность, очень малая сумма.

**MINOR OFFENSES AS EXCEPTIONS TO THE CRIMINALITY OF
THE OFFENSE**

Dauletbaeva Aynur Bakhramovna

Student of State University named after Berdakh

Annotation: *This article examines the concept of circumstances excluding the criminality of an act and its specific aspects, and analyzes the opinions of legal scholars in this regard. It also elaborates on minor acts related to the circumstances that exclude the criminality of the act. Appropriate proposals and recommendations for further improvement of the norms of the criminal law are given.*

Key words: *crime, circumstances excluding the criminality of the act, minor acts, social danger, very small amount.*

Mamlakatimizda sodir qilinayotgan jinoyatlarni bartaraf qilishga doir o'ziga xos tizim va normativ-huquqiy hujjatlar yaratilib, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga ahamiyat berilayotganligi natijasida davlat va jamiyatni har xil huquqbuzarliklar va jinoyatlardan muhofaza qilish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish, sabab va maqsadlarini e'tiborga olish va shu nuqtai nazardan, "jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar viktimligining oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va uning samaradorligini oshirish" sud-huquq sohasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari qatorida belgilanib, bu sohani tadqiq qilish qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarda sodir etiladigan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda jabrlanuvchi, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan shaxsning xulq-atvorini ushbu jinoyatlar profilaktikasini rivojlantirish va uni o'rganishning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda.

Jinoyat-jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik). Muayyan qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasi har bir davlatda o'zining ijtimoiy tizimi, fuqarolarning turmush tarzi, o'ziga xos xususiyatlari, urf-odatlar, an'analariga muvofiq xalqaro huquq me'yorlari e'tiborga olingan holda hal etiladi.

Qilmish jinoyat ekanligini aniqlash uchun quyidagi umumiy belgilar inobatga olinadi:

1. qilmishning ijtimoiy xavfliligi;
2. aybning mavjudligi;
3. jazoga sazovorligi;

4. huquqqa xilofiligi

Har qanday jinoiy qilmishda mazkur belgilarning barchasi birdaniga mavjud bo'lishi shart, ulardan biri mavjud bo'lmasa, qilmishni jinoyat emas deb hisoblashga asos topiladi[1].

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar sodir qilinganligi uchun jinoyat deb topilmasdan, jazo va javobgarlikni istisno qiluvchi holatlarga aytilib, yuridik adabiyotlarda qanday qilmishlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar turiga kirishi kerakligi haqida olimlar turli xil fikrlarini bildirganlar. Ko'plab mualliflar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasini tushuntirar ekan, bu inson xulq-atvori bilan bog'liq harakatlar ekanligini ta'kidlaydilar. Ya'ni, faqat qonuniy xatti-harakatlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat deb hisoblanishi lozimligi ta'kidlanadi.

M.Rustambayevning fikricha, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar qonunga zid hisoblanmaydi, chunki aynan shu holatlar davlat va mulk egasiga o'z mulkini tasarruf etish va o'zini hamda mulkini turli tajovuzlardan himoya qilish imkonini beradi. Albatta, fikr o'rinli sanalib, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning qonunchilik tizimiga kiritilishining mohiyati ham aynan shu sanaladi[2].

Yana bir olimlardan biri R.Kabulov qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: “Inson ayrim hollarda tashqi tomondan u yoki bu jinoyatga o'xshash harakatlar sodir etishi mumkin, ammo bu zararli oqibat keltirib chiqaruvchi harakatlarni u ziyon yetkazishi aniq bo'lgan xavf-xatarni bartaraf etish, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishning oldini olish uchun, bunday qilmish sodir etgan shaxsni ushlash, buyruqni yoki o'z majburiyatlarini bajarish vaqtida, shuningdek, kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilikka asoslanish orqali yo'l qo'yishi mumkin. Qonunda belgilangan aniq shartlarga rioya qilib zarar yetkazilgan bo'lsa, bu kabi harakatlar jinoyat sifatida ko'rib chiqilmaydi.

Shu jumladan, chet ellik huquqshunos olimlar R.R.Shakurov va Yu.V.Goliklarning ham bu haqida fikr bildirgan bo'lib, unga ko'ra o'z harakatlarini qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarda sodir etgan shaxslarni rag'batlantirish usulini qo'llash haqidagi bir qancha takliflar berib o'tgan[3].

Yana bir chet ellik tadqiqotchi Yu.V.Baulin ham bu to'g'risida o'z fikrini bergan.Uning ta'riflashicha qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar qatoriga jabrlanuvchining roziligi, sport bilan shug'ullanish, ota-ona hukmining o'tkazilishi, xizmat burchini bajarish, tibbiy aralashuvni va inson sog'lig'i yoki

hayotiga zarar yetkazish bilan bog‘liq ayrim boshqa holatlarni kiritish haqidagi takliflarni berib o‘tgan[4].

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat Kodeksida ham qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasiga yana bir ta’rif berilgan.

Qilmishda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo‘lsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g‘ayriqonuniy yoki aybli bo‘lmasa, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi. Quyidagi holatlar, ya’ni

- kam ahamiyatli qilmishlar;
- zaruriy mudofaa;
- oxirgi zarurat;
- ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash chog‘ida zarar yetkazish;
- buyruqni yoki boshqacha tarzda vazifani bajarish;
- kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilik;
- jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qorqitish natijasida qilmish sodir etish jinoyatni istisno qiluvchi holatlar deb topiladi[5].

Yuqorida biz jinoyat tushunchasiga ta’rif berganimizda qilmishda jinoyat belgilari bo‘lmasa bu qilmishlar jinoyat hisoblanmasligini ta’kidlagan edik, ya’ni, qilmish ijtimoiy xavfli bo‘lishi, huquqqa xilof bo‘lishi, qilmishda ayb bo‘lishi kerak edi. Lekin, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar ichida kam ahamiyatli qilmish boshqa holatlardan farq qiladi, uning farqi shundaki, kam ahamiyatli qilmishlarda jinoyat belgilaridan huquqqa xiloflik va ayb mavjud bo‘ladi, faqatgina bu qilmish ijtimoiy xavfli bo‘lmaydi, ya’ni, uning sodir etgan harakati shaxsga, davlatga, jamiyat yoki biror tashkilotga jiddiy zarar yetkazmaydi va og‘ir oqibatlariga olib kelmaydi, shuning uchun ham jinoyat qonuni bu qilmishni kam ahamiyatli deb topadi va uning jinoiyligini istisno qiladi.

Garchi ushbu Kodeksda jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo‘lsa-da, o‘zining kam ahamiyatliliigi tufayli ijtimoiy xavfli bo‘lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi.

Huquq amaliyotchilari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 36-moddasidagi normaning juda kam qo‘llanilishi ushbu moddadagi normaning kerakligi haqida shubhalar tug‘ilishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlagan huquqshunoslardan biri V.V. Maltsev shunday deydi “kam ahamiyatli qilmishlar jinoyat kodeksiga hech qanday ijobiy sifatni olib

kelmaydi, chunki uning o‘zi jinoyat tushunchasi bilan hech qanday aloqaga ega emas”.

Ushbu fikrlarga hamfikir bo‘lgan olimlardan biri A.P. Kozlov esa kam ahamiyatli qilmish institutidan umuman voz kechish kerakligini, u amaliyotda jinoyat qonunini suiste`mol qilishga olib kelishini va kam ahamiyatli qilmishlarga boshqa usullarda ta`sir ko`rsatish mumkinligini ta`kidlagan. Qilmishning kam ahamiyatligini aniqlashda keltirilgan zarar miqdori muhim ahamiyatga ega bo`ladi, aynan yetkazilgan zarar biror shaxsning hayotiga yoki sog`lig`iga qay darajada ta`sir qilganligi inobatga olinadi, yoki biror shaxsning mulkiga qancha miqdorda ziyon yetkazilganligi aniqlanadi, masalan bir shaxsni bir yoki ikki tarsaki urish, aslini olib qaraganda bu jinoyat, bu qilmishda jinoyat belgilari ham bor, lekin bu qilmish o`sha jabrlanuvchining sog`lig`iga hech qanday jiddiy ziyon yetkazmaydi, shuningdek bu qilmishda ijtimoiy xavflilik ham yo`q, shuning uchun jinoyat qonuni bu qilmishni jinoyat deb topmaydi.

Chet el davlatlari bilan solishtirganda masalan, Rossiya Federatsiyasining ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksiga mufoviq oz miqdorda talon-taroj qilish ma`muriy huquqbuzarlik deb e`tirof etilgan. Agarda o`sha qilmish Rossiya Federatsiyasi Jinoyat Kodeksining 158-moddasi ya'ni, og`rilik, 160-moddasi[5] ya'ni, o`zlashtirish yoki rastrata tarkibiga kirmasa.

O`zbekiston Respublikasi qonunchiligida oz miqdorda talon taroj qilish Ma'muriy javovgarlik to`g`risidagi kodeksning 61-moddasida keltirilgan bo`lib, mulkchilik shaklidan qat`i nazar korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o`g`irlash, o`zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste`mol qilish yoki firibgarlik yo`li bilan oz miqdorda talon-toroj qilish —bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo`ladi[6]. Bu javobgarlik faqat yuridik shaxslarga qo`llaniladi.

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligini o`rganish davomida oz miqdorda talon-taroj (2500 rublgacha) qilish va miqdor bilan bog`liq bo`lgan qilmishlarni sud ayblovi hukmini bekor qilib asosga kam ahamiyatli qilmish deb topgan holatlar aniqlangan va bu qilmishlarni har doim ham kam ahamiyatli deb topish uchun to`la asoslangan deb aytolmaymiz chunki kam ahamiyatli qilmish faqat qonunni qo`llovchi subektlar qolidagina o`sha individual vaziyatga nisbatan baholash vositasi bo`lib xizmat qiladi xolos.

Qaysidir qilmishni kam ahamiyatli deb topish uchun asosiy me`zon bu huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquqiy savodxonligini ya`ni bilimlarini kam ahamiyatli qilmishni baholashda hisobga olinishi lozim bo`lgan kompleks holatlarni ya`ni qilmishning obyektiv va subyektiv belgilari, shuningdek, kam ahamiyatli qilmishning omillarini – ijtimoiy xavfga ega bo`lmagan ahamiyatsiz (juda oz) miqdorda zararining mavjudligi, vaqti, joyi, qasdning kam ahamiyatli

ekanligi, motiv va maqsadning kam ahamiyatli qilmish sodir etishga mo'ljallanganligi kabilarni o'zida mujassamlashtirishi lozim. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligidagi 2500 rublgacha bo'lgan oz miqdordagi talon-taroj qilishlarni jinoyat sifatida qidirishdan voz kechish faoliyati o'z navbatida kissavurlik, guruh bo'lib va uy o'g'riliklari kabi qilmishlarga qarshi jinoiy-huquqiy mexanizm ta'sirini susaytiradi. Keyinchalik, bu holatlar esa ushbu miqdorni asosiy mezon qilib javobgarlik va jazodan ozod qilish holatlari ham kuzatiladi. Bu esa qilmish oqibatida jabr ko'rganlarning asosli havotirini vujudga keltiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar mustaqil jinoiy-huquqiy institut bo'lib, bu institut qanday qilmishlar jinoyat emasligini aniqlaydi va inson, jamiyat va davlat manfaatlarini ustun turishini isbotlaydi. Qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, insonga, jamiyatga va davlatga ijtimoiy xavfli bo'lmagan qilmishni kam ahamiyatli deb topishdan oldin qonunchiligimizda muayyan bir o'lchov mezonini kiritish lozim. Ushbu mezon har bir shaxsning mehnatga ish haqiga ya'ni uning daromadiga qarab belgilanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi chunki har qanday summaning har kimda qadri turlicha bo'lishi mumkin agar bitta summa miqdori barchaga tatbiq qilinsa unda JKning 5 va 8-moddalari ya'ni fuqarolarning qonun oldida tengligi va odillik prinsiplari buziladi. Shuningdek, kam ahamiyatli qilmishning omillarini – ijtimoiy xavfga ega bo'lmagan ahamiyatsiz (juda oz) miqdorda zararning mavjudligi, vaqti, joyi, qasdning kam ahamiyatli ekanligi, motiv va maqsadning kam ahamiyatli qilmish sodir etishga mo'ljallanganligi kabilarni qilmishning kam ahamiyatlilikini aniqlashda hal qiluvchi mezon sifatida e'tiborga olish lozim.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-4947 of February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan" // Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 6, Article 70.)

2. Rustamboyev M. Jinoyat huquqi. Darslik. Umumiy qism. Toshkent: "ILM-ZIYO" –2005. –B. 227. (Rustamboyev M. Criminal law. Textbook. General section. Tashkent: "ILM-ZIYO" -2005. -P. 227)

3.Голик Ю.В. Воплощение метода поощрения в нормах уголовного права //Актуальные вопросы государства и права на современном этапе: Материалы конференции. –Томск:, 1982. –Б. 143.(Golik Yu.V. The embodiment of the method of encouragement in the norms of criminal law // Topical issues of state and law at the present stage: Conference proceedings. - Tomsk :, 1982 .--P. 143.)

4. Баулин Ю.В. Обстоятельства, исключающие преступность деяния. Афтореферат диссертации. М.: 2015. –Б. 42.(Baulin Yu.V. Circumstances precluding the criminality of the act. Abstract of the thesis. М .: 2015 .--P. 42.)

5.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.Umumiy qism. Уголовный Кодекс Республики Узбекистан. Общая часть.Criminal code of Republic of Uzbekistan.Common part.

6.O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks. Кодекс административной ответственности Республики Узбекистан. Code of administrative responsibility of the Republic of Uzbekistan.

MAKTABGACHA TA'LIM BOLALARIDA (3-5 yosh) JISMONIY MASHQ BAJARISHING AHAMIYATI

Nizomov Behzod Raximjonovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

“Jismoniy madaniyat va sport” kafedrası

assistenti

+998901032424 bnizomov24@gmail.com

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti

“Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti

“Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi III- kurs talabasi,

“Fan sportga va sog'lom hayot sari” ilmiy to'garagi

a'zosi:

Qurvonqulov Xudoyberdi Qurvonqul o'g'li

+998990626239 qurbonqulovxudoyberdi817@gmail.com

Annotatsiya: *Maqola maktabgacha ta'lim (3-5 yosh) bolalarida jismoniy mashqlar bajarishning ahamiyati tahlil qiladi. Jismoniy faoliyat yosh sportchilarning kuch, chidamlilik va psixologik fazilatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi. Shuningdek, mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirish, ovqatlanish va dam olish muvozanatini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.*